

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI

professori, kimyo fanlari doktori

SULTONOV MARAT MIRZAYEVICH

tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan

konferensiya materiallari



<u>TAHRIR HAY’ATI</u>	<u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u>
Bosh muharrir Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<u>Bosh muharrir</u> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <u>Tahririyat a’zolari:</u> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
Muassasa Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

ILM SARHADLARI

Sulstonov Marat Mirzayevich, 1964 yil 17 fevralda Andijon viloyati, Asaka shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Ma'lumoti oliy, 1986 yil Toshkent davlat universitetini kimyo o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

Sulstonov Marat Mirzayevich- 1986-1988 yy. -Jizzax viloyati, Jizzax tumani 8-maktab o'qituvchisi, 1988-1989 yy. - Toshkent tibbiyot instituti umumiy kimyo kafedrasida kichik ilmiy xodimi, 1989-1992 yy.- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi



polimerlar kimyosi va fizikasi instituti aspiranti, 1992-1994 yy. -O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi polimerlar kimyosi va fizikasi instituti kichik ilmiy xodimi, 1994-1995 yy.- Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi, 1995-1996 yy. -Jizzax viloyati hokimligi fan va texnologiya ilmiy markazi ilmiy kotibi, 1996-1997 yy. - Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi, 1997-1998 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, 1998-2012 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti kimyo-ekologiya va uni o'qitish uslubiyati kafedrasida mudiri, 2012-2018 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, 2018 yil iyuldan hozirgi vaqtga qadar Jizzax davlat pedagogika universitetining kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri lavozimidan ishlab kelmoqda.

Sulstonov Marat Mirzayevich universitetdagi pedagogik faoliyati mobaynida analitik kimyo va organik kimyo fanlarining o'qitilishi, ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish borasida chuqur izlanib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Shu bilan birga institutning o'quv, ilmiy-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Sulstonov Marat Mirzayevich 1993 yil 30 aprelda professor B.L.Gofurov va professor S. Masharipovlar rahbarligida “Vinilxloridni to'yinmagan benzoksazon hosilalari bilan sopolimerini sintez qilish va xossalari o'rganish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 2019 yil 5 martda professor E.Abduraxmonov ilmiy maslahatchiligida “Chiqindi va tutunli gazlar tarkibi monitoringi uchun avtomatlashgan termokatalitik usullarni ishlab chiqish” mavzusidagi doktorlik

***“Journal of Natural Science” №1(14) 2024 y. Sultonov Marat Mirzayevich
tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan konferensiya materiallari***

dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda OAK e'tirofidagi ilmiy jurnallarda 100 dan ziyod ilmiy maqolalari e'lon qilingan.

Sultonov Marat Mirzayevich rahbarligida kimyo o'qitish metodikasi bakalavr ta'lim yo'nalishining 100 dan ortiq talabalari bitiruv malakaviy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bugungi kunda qadar 11 nafar magistrlik ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilgan.

Sultonov Marat Mirzayevich “Термокаталитические методы определения состава выхлопных и дымовых газов” nomli monografiya, “Аналитическая химия”, “Fizik-kolloid kimyo” “Kimyo tarixi” nomli o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblanadi.

Sultonov Marat Mirzayevich O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.01.03 raqamli Ilmiy Kengash va Samarqand davlat universiteti huzuridagi kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi 03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy Kengash va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya nanotexnologiyalar” yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-texnik kengashlar a'zosi, sifatida ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Sultonov Marat Mirzayevich yuqori tashkilotlar tomonidan yuklatilgan vazifalar, universitet va fakultet tomonidan berilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarganligi sababli “Xalq maorifi a'lochisi” ko'krak nishoni, vazirlik va universitet rektorining faxriy yorliq va sovg'alari bilan taqdirlangan.

Sultonov Marat Mirzayevich universitet jamoasi o'rtasida alohida e'tiborga ega pedagog, talabalarga bilim berish borasida talabchan va mehribon ustoz-murabbiylardan biridir. U doimiy ravishda o'z malakasini, siyosiy va ilmiy-nazariy saviyasini oshirish ustida sabr-toqat bilan ishlaydi.

**JIZZAX VILOYATI YER RESURSLARI DEGREDATSIYALASHUVINI
OLDINI OLIHNING GEOGRAFIK OMILLARI.**

Nazarmatov Abdurahmon., Usanov Doston., Safarov Jasur., Murodqosimov SHerali.

Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabalari.

Annotatsiya: Jizzax viloyati tabiiy geografik o'lkasining tabiiy sharoitidan kelib chiqib, o'lkaning yer fondi, foydalaniladigan va foydalanilmaydigan yerlari, yerning bonitet holati kabi hususiyatlari hududiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, tabiiy sharoit, landshaftli o'lkalar, yer bonitrovkasi, yer kadastri, foydalaniladigan va foydalanilmaydigan yerlar, qishloq xo'jaligi yerlari kabilar.

Аннотация: На основе природных условий природно-географического района Джизакской области проанализированы особенности региона, такие как земельный фонд, используемые и неиспользуемые земли, а также состояние земель в региональном разрезе.

Ключевые слова: Джизакская область, природные условия, озелененные земли, межевание, земельный кадастр, используемые и неиспользуемые земли, земли сельскохозяйственного назначения и др.

Bugungi global iqlim o'zgarishlari davrida tobora kuchayib borayotgan yer va suv taqchilligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlaridan kafolatli hosil olish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash barqarorligini oshirish uchun mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish va sug'orishning tejamkor texnologiyalarini keng joriy qilish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning ko'pgina qismida, qolaversa, mintaqamizda, jumladan, mamlakatimizda ham yer-suv resurslariga bo'lgan talab ortayotganligi bilan birga, suvning taqchilligi ham yil sayin oshib bormoqda. Yillar davomida kam suvli mavsum har 6-8 yilda bir marta kuzatilgan bo'lsa, oxirgi yillarda bu jarayon har 3-4 yilda takrorlanib bormoqda. Respublikamizda hozirgi kunda yer va suv resurslaridan tejamli, samarali foydalanish asosida sug'oriladigan maydonlardan olinadigan hosil miqdorini oshirish, bu borada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, sifatini yaxshilash hamda ichki bozorni to'ldirish orqali mamlakat aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yer azaldan xalqning eng asosiy va bebaho boyligi, chinakam umumxalq mulki hisoblanadi. Yer mamlakatimiz milliy boyligining eng muhim qismi, ishlab chiqarishni yuritishning asosiy negizidir. Ayniqsa, yer qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda muhim vosita rolini o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasiga muvofiq tabiiy obektlari, jumladan yer, umumxalq boyligidir va ular davlat muhofazada, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan etiuojlarini yanada to'laroq qondirishda yer boyliklaridan

unumli va oqilona foydalanish muh'im ah'amiyatga ega. Yerdan ilm – fan tavsiyalari asosida samarali foydalanish, uning muh'ofazasini to'g'ri taminlash, shak-shubh'asiz qishloq xo'jaligini rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Hozirgi vaqtda sug'oriladigan hududlarning yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun avvalombor har bir ob'ektni tizim deb qaramoq maqsadga muvofiqdir (Sug'oriladigan hududlarning yersuv resurslaridan oqilonafoydalanish va ularni muhofaza qilish Tajiev K.K. O'zb geog jamiyati 2014 y. 43-son). Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yer resurslarining unumdorligi va xosildorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uni rivojlantirishning asosiy omillari avvalo joyning tabiiy geografik sharoitidir. Hususan yerni unumdorligini oshirish uchun joining geografik o'rni, joyning iqlimi, o'simlik va hayvonlari, tuproq osti tog' jinslarining kimyoviy tarkibi va tuzilishi, joyning relyefi va o'lkaning geologik yoshi, shuningdek, antropogen ta'sir kabilar muhim faktor xisoblanadi. Yer insoniyatning bebaho boyligidir, u o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqatlar bilan ta'minlaydi, kiyintiradi. Yer qanchalik hosildor bo'lsa, u insonga shunchalik iltifot ko'rsatadi, kishilar hayot uchun zarur bo'lgan nozu-ne'matlarni yetkazib beradi. Shu sababli, boshqa mintaqalar kabi Jizzax viloyatidagi yerlarni meliorativ holatini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Voha yerlarning meliorativ holatini aniqlash uchun yer resurslariga doir barcha tabiiy va antropogen omillarni puxta o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu bois ham 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Ekin maydonlarini yanada optimallashtirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash”, masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Demak, O'zbekiston Respublikasida uer-tuproq resurslari mavjud hamma sohalarning tayanchi, asosiy ishlab chiqarish vositasidir. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotining agrar sektorining rivojlanishi shunga boqliqligi, qishloq xojalik ishlab chiqarishining asosiy vositasi bo'lmish Yer - tuproq qoplami Yer bioqatlamning barqarorligi va uning ekologik holatini saqlab turishda ham katta rol o'ynaydi. Prezidentimizning “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirdi. Demak, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlanishi bevosita suv va yerning unumdorligiga bog'liq. Meliorativ holat sizot suvlari chuqurligi, ularning mineralizasiyasi g'amda tuproq sho'rlanish darajasi bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda yerlarning meliorativ holati ko'rsatkichlarini dalalarning suv ta'minoti, sug'orish suvlarining sifati (mineralizasiyasi), drenajlanishi, irrigasiya va drenaj tizimlarining texnik holatlaridan ajratib, taxlil qilib bo'lmaydi. Jizzax viloyatining 2021 yil 1

yanvar holatiga tuzilgan yer hisoboti bo'yicha viloyatning umumiy foydalanishidagi yer maydoni 2117830 gektarni tashkil etib, shundan jami sug'oriladigan yerlar 303872,0 gektar. Jami xaydaladigan ekin yerlar 486823,0 gektar, shu jumladan sug'oriladigan ekin yerlar 259877,0 gektar, lalmi xaydaladigan yerlar 226946,0 gektar. Ko'p yillik daraxtzorlar jami 27346,0 gektar, shundan bog'zorlar 16170,0 gektar, uzumzorlar 8810,0 gektar, tutzorlar 2121,0 gektar, ko'chatzorlar 245,0 gektarni tashkil kiladi. Bo'z yerlar 11316,0 gektar, pichanzorlar 12400,0 gektar, yaylovlar 724119,0 gektarni, jami qishloq xo'jaligi yerlari 1262005,0 gektarni tashkil etadi. 34414 gektar aholi tomorqa yerlarini, 56,0 gektar bog' va sabzavotchilik uyushmalari yerlarini, 5136,0 gektar meliorativ qurilish ostidagi yerlarni, 163754,0 gektar o'rmonzorlarni va 652465 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlarni tashkil etgan. Viloyatda tabiiy sharoitning noqulay kelishi, axoli sonining yildan ortib borishi, yerlarga bo'lgan talabning ko'payib borishi, axolida ekologik ta'lim tarbiyaning yo'qligib ekologik savodsizlik natijasida tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirning kuchayishi, suv va yerdan nato'g'ri foydalanishi kabi ko'plab salbiy omillarning ta'siri natijasida yer resurslari unumdorligi kamayib ko'plab yerlar ishdan chiqmoqda. Natijada viloyatda bir yilda 2021 yilda 2020 yilga nisbatan quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan: jami haydaladigan ekin yerlar 2440,0 gektarga kamaygan, shundan, sug'oriladigan ekin yerlar 152,0 gektarga ko'paygan (ko'payish sababi sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlar buzilib suvli ekin yer turiga o'tkazildi), lalmi ekin yerlar 2592,0 gektarga kamaygan (kamayish sababi ushbu maydonlar o'rnida bog' va tokzorlar barpo etilganligi uchun lalmi ekin yerlidan ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi) Ko'p yillik daraxtzorlar jami 5018,0 gektarga ko'paygan (ko'payish sababi 2578 gektar yaylov va 2592 gektar lalmi yerlarda ko'p yillik daraxtzorlar barpo etilganligi uchun ushbu maydonlar ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi), shundan bog'zorlar 1599 gektarga, uzumzorlar 3448 gektar, mevali ko'chatzorlar 7 gektarga ko'paygan (sababi lalmi va yaylov yerlar hisobidan bog', tok va mevali ko'chatzorlar ekilgan va ushbu maydonlar ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi). Tutzorlar 37 gektarga kamaygan, ya'ni yaroqsiz tutzorlar buzilib yer maydoni ekin yer turiga o'tkazilgan. Bo'z va pichanzorlar o'zgarishsiz qoldi, yaylov yerlar 2578 gektarga kamaydi (bunga sabab ushbu maydonda bog'-tok ekilgan va ushbu yaylov yerlar ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi). Jami qishloq xo'jaligi yerlari o'zgarishsiz qoldi (Jizzax viloyati kadastr agentligi ma'lumotlari). Mazkur mintaqadagi barcha sug'orish kollektor, drenaj, ochiq va yopiq zavur, latok, ariq kanallar hozirda o'zining yaroqlilik muddatini o'tab bo'lgan. Bunga sho'rolar davrida berilgan planni ortig'i bilan bajarish, kim o'zar, o'zini xukumatga yaxshi ko'rsatish kabi illatlar oqibatida yerga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lganlik sabab bo'lgan.

Natijada bunday yerlarning qayta sho'rlanishi, hosilsizlikka, ekologiyaning buzilib ba'zi hatarli daoajadagi o'pka sili, saraton kabi kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Aytish joizki, tabiiy muxitni inson xo'jalik faoliyatining zarali ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq ko'pgina muammolar keng ko'lamdagi sa'yi harakatlarni taqozo etadi. Katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan sharoitda muammolarni faqatgina umumiy hamkorlik asosidagina hal qiliish mumkin. Yerlarning meliorativ muammoasi respublikamiz barcha burchaklarida ham hozirda dolzarb masala bo'lib, faqat uning keskinlik darajasi mamlakatimizning har bir mintaqasida turlicha tus olgan. Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu borada biz, achchiq xaqiqatga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Viloyatda aholining o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, hosildor yerlarni, shaharlarni rivojlantirishga uy-joy qurilishiga, yangi korxonalar muhandislik hamda transport-komunikasiyalari tarmog'ini barpo etishga bo'lgan e'tibor jadal sur'atlarda oshib bormoqda. Aniq maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo xamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan bugungi kunda xalqimiz, millatimiz qalbida yana shu ishonch va e'tiqod yanada mustaxkamlanmoqda. Viloyatimizni gullab-yashnashida mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelib bu yerni o'ziga vatan qilib yashayotgan yurtdoshlarimizning xam beqiyos xissasi bor. Mustaqillik davrida olib borilgan ishlar, xususiylashtirish, tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti kabi omillar ilm-fan va texnika yangiliklari yutuqlarini qo'llash kabi ko'p qirrali ishlar qilinmoqda. Uzoq vaqtlardan beri o'z holiga tashlab qo'yilagan ariq-zovurlar, drenaj-quvurlari tozalanib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha dastlabki muhim qadamlar qo'yildi. Viloyatda bugungi kunga kelib yer osti suvlarining ko'tarilishi natijasida keng ko'lamda yerlarning xosildorligi tushib, unumdorlik darajasi yo'qolib bormoqda. Keyingi o'n yil ichida ushbu yerlarning degredasiyalashuvi oqibatida tuproq nurashi, sho'rlanishi, yer osti va yer usti suvlarining satxi ko'tarilishini oldini olish yaxshilashga qaratilgan quyidagi taxliliiy ilmiy xulosalarni berish mumkin. 1) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqilgan keng ko'lamda zamonaviy texnika va texnologiya usularini keng jalb qilish. Qishloq xo'jaligiga xam bozor iqtisodiyotini keng tadbiiq qilish asosida jamoa, shirkat, ijara, hissadorlik va hususiiy tadbirkorlikka o'tish. 2) Ma'muriy buyruqbozlik, zo'ravonlik usullaridan voz kechish, ish yuritishni eski qoliplariga barham berish. 3) Almashlab ekishning uzluksizligini ta'minlash 4) Tomchilatib va yomg'irilatib sug'orishni joriiy qilib, suvdan unumli foydalanish. 5) Sug'orma dexqonchilikda yerni kuzda chuqur va maromiga yetkazib shudgorlash va begona o'tlardan tozalanish. 6) Yerni bonitetini ko'tarish uchun zaruriiy agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga

o'shinish va amaliy takliflarni xayotga tadbiiq qilish 7) Mintaqada ekologik-meliorativ sharoitni yaxshilash, yer osti va yer usti suvlarning sifat yomonlashuvining oldini olish.8) Dexqon-fermerlarning ekologik madaniyatini va bilimni oshirib borish. 9.) Yerlarning zaxini qochirish dunyo tajribasiga asoslangan zamonaviy takliflarni xisobga olish.10) Dexqonchilikda xashoratlarga qarshi kurashishning kimyoviy usullari o'rniga tabiiy va biologik usullarini qo'llash.11) Qishloq infrastrukturasini o'zgartirishga qaratilgan davlat dasturini to'liq amalga oshirish. Viloyatning iqlimi, yer maydoni kabi tabiiy geografik xususiyatlari hali kelajakda ko'plab istiqbolli rejalarni amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Chunki qishloq-xo'jaligida yetishtiriladigan maxsulotlar salmog'i Respublikamiz iqtisodiyotida muxim o'rin tutadi. Shuning uchun xam bugungi kunda sug'oriladigan tuproqlarning unumdorligini oshirish, qishloq-xo'jaligida asosiy ekinlar g'o'za va donli ekinlarning mo'ljaldagi xosilini yetishtirish bilan bir vaqtda tuproq unumdorligini saqlab qolish, uni ilmiy asosda boshqarish va muxofaza qilish yo'llarini ishlab chiqish davr talabidir. Biz bugungi va ertangi vatanimizning gullab yashnashi, ozod va obod vatan qurish yo'lida tinmay mehnat qilishimizda be'vosita va bavirusita qishloq xo'jaligining suv va meliorativ yerlar xosildorligini o'rni kattadir. Sifatli va unumli maxsulotlarga ega bo'lishning birdan bir chorasi zaminning meliorativ holatini tubdan yaxshilash yo'li bilangina erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.A.Boltaev.Mirzacho'l – Jizzax : o'tmishi va buguni. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007
- 2.Toshxo'jaev R. Tuproqshunoslik. O'quv qo'llnma. – Toshkent, TDPU. 2000.
- 3.Холмирзаев, Ж. Э., & Усмонов, Ю. К. (2020). Географические особенности природно-географических сетей джизакской области. in *фундаментальные и прикладные исследования в гидрометеорологии, водном хозяйстве и геоэкологии* (pp. 200-203).
- 4.Oqanov, Q. (2021). Жиззах вилояти сув ресурсларини даврийлик конунияти асосида баҳолаш. *Мир исследований*, 3(3).
5. Камолов, М. Н., Холмирзаев, Ж., & Хакимов, Б. (2021). Жиззах вилоятида гидрологик хусусиятларнинг тақсимланиши. *Журнал естественных наук*, 1(5).